

## DRAMATIK MATNDA TARIXIY KOLORITNI IFODALOVCHI ONOMASTIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Muhtaram Ikramova

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

*Annotatsiya: Maqolada Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida timsol nomlarining lisoniy xususiyatlari, shuningdek, bu nomlarning tarixiy koloritni ifodalashiga xos lingvopoetik tahlili berilgan.*

*Kalit so'zlar: lingvopoetika, onomastika, laqab, epithet, badiiy- ekspressiv funksiya.*

## LINGUOPOETIC ANALYSIS OF ONOMASTIC UNITS REPRESENTING HISTORICAL COLOR IN THE DRAMATIC TEXT

Muhtaram Ikramova

doctoral student of Namangan State University

*ANNOTATION: The article presents the linguistic features of symbolic names in the tragedy «Mirzo Ulugbek» by Maqsud Sheikhzadeh, as well as the linguopoetic analysis of the historical color of these names.*

*KEY WORDS: linguopoetics, onomastics, nickname, epithet, artistic-expressive function.*

## ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, РЕПРЕЗЕНТИРУЮЩИХ ИСТОРИЧЕСКИЙ ЦВЕТ В ДРАМАТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

Мухтарам Икрамова,

базовый докторант Наманганского государственного университета

*Аннотация: В статье представлены лингвистические особенности символических имен в трагедии Максуда Шейхзаде «Мирзо Улугбек», а также лингвопоэтический анализ исторической окраски этих имен.*

*Ключевые слова: лингвопоэтика, ономастика, прозвище, эпитет, художественно-выразительная функция.*

**KIRISH.** Ijodkor ma'lum tarixiy asar yaratish ekan, asar g'oyasidagi davr muhiti, makon va zamondagi har bir detaldan tortib tarixiy qahramon xarakterini ochib berishda til birliklarning tarixiy bo'yoqni ochib berishiga alohida e'tibor qaratadi va saralaydi. Bir tarixiy davr yohud tarixiy shaxs hayoti ko'plab qalam ahllari tomonidan turlicha individuallashtiriladi. Zamonaliviy tilshunoslikda tarixiy haqiqatning qay darajada ochiq va ta'sirchan tasvirlanganligi badiiy asar lingvopoetikasi bilan baholanadi. Lingvopoetika – badiiy matnda nafosat yaratish san'ati hisoblanadi, xususan, tarixiy dramatik asarda o'tmish haqiqatlarini badiiyatga aylantirish ham alohida san'atdir.

**ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYASI.** Maqsud Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek" dramasida tarixiy davr koloritini ochib berish uchun onomastik birliklar ko'lamiga alohida urg'u beradi. Dramatik asar asosini nutq tashkil etadi, shunday ekan, qahramonlar nutqida ham timsol nomlarining funksional-semantik mohiyati namoyon. Muallif tomonidan mohirlik bilan tanlangan bu birliklar asar badiiyatining ekspressivligini oshirishda, dramatik xususiyatni asar g'oyasiga singdirishda muhim ahamiyatga egadir. Badiiy matnda poetik ko'lamdagagi onomastik birliklarni tahlil etish lingvopoetika sohasining asosiy masalalaridandir. Bu kabi tahlillar lingvopoetika yo'nalishida onomopoetika termini bilan atalishi ma'lum. Bu masalada tilshunos olima D. Andaniyazovaning tadqiqot ishlarida asarda onomastik birliklar matnning struktural-semantik yaxlitligiga xizmat qilishi barobarida uning ichki dinamikasi va ohang butunligini ham ta'minlashi lozimligi alohida nazariy va amaliy tahlil etilgan [1:92-94]. Ishimizda badiiy matnning lisoniy tahlili metodologik tamoyillari masalalari yoritilgan tilshunos M. Yo'ldoshevning [2] tadqiqot materiallari ham bizning ilmiy faoliyatimiz uchun muhim manbalardan biri bo'ldi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Badiiy matnda, jumladan, dramatik matnda nomlar badiiy poetikani shakllantirish va qahramonlar ruhiyatiga xos, shuningdek, drama nutqiga xos badiiy ekspressiv funksiya ifodalashi lozim. Xususan, Mirzo Ulug'bek fojiasida ijodkor tarixiy davdr muhitini yorqinroq

ifodalash uchun Piri Zindony, Bobo Kayfiy (to‘qima obraz) kabi laqablarni drama sujetiga olib kiradi. Bu kabi laqablar muallif ideostilidagi tarixiy davrni ro‘yirost ochishga va asar badiiyatining ekspressivligini oshirishga xizmat qilgan. Laqablar insonning ikkinchi ismdir. Laqab – uning atrofidagilari tomonidan beriladigan, shaxsning biror xarakterli belgi, xususiyatini ifodalovchi, asosan, shaxs ismi bilan birlgilikda qo‘llanadigan antropom turi [3:42] bo‘lib, badiiy matnda muallif laqablardan asar g‘oyasini ochib berish, shuningdek, muallif tafakkuridagi fikrlarni shu timsollar nutqi vositasida ifodalash, asarning badiiy ekspressiv funksiyasini ta‘minlash uchun foydalananadi. Jumladan, “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy fojiasida Piri Zindony laqabi misralar bayonida quyidagicha keltiriladi:

### Zindonbon

Bunda ismi o‘chirilgan... ammo zindonda  
Unga laqab qo‘yganmiz biz: - Piri Zindony.

Senga so‘roq, qani ayt-chi, Piri Zindony,

Qilmishingga sen pushaymon edingmi, yo‘qmi? [4:129]

Ma‘lumki, pir leksemasi bir necha lug‘aviy ma’nolarda qo‘llaniladi. Jumladan, keksa, diniy tariqat asoschisi, diniy rahbar, ustoz, afsonaviy shaxs kabi semalarda ifodalanadi [5:261]. Matn mazmunida Piri Zindony Amir Temurga bo‘ysunmaganligi uchun mangu zindonband etiladi. Uning nasl-nasabini Ulug‘bek saroyida hech kimsa bilmaganligi bois asarda muallif shu nom bilan ifodalagan. Asar mazmunida ko‘pni ko‘rgan ustoz semasi ham ifodalanadi. Shayxzodaning shayxona uslubi shundaki, zindon leksemasi bilan pir leksemasini yonma-yon qo‘llaydi. Odatdagi zindonband shaxs emas – zindonning piri, dono, barchani ezgulikka chorlovchi va mayoq bo‘luvchi, vatanparvar, xalqning osoyishtaligini o‘ylovchi Piri Zindony. Laqab so‘z birikmasi shaklida ifodalangan, ya’ni Piri Zindony – zindonning piri bo‘lib, izohlovchiga -i egalik affiksi, izohlan mishga -iy so‘z yasovchi affiksini qo‘shish orqali epitetli birikma hosil bo‘lgan. Asar matnida Piri Zindoniyning asl nomi Hasan chilangar bo‘lib, bu laqab timsol xarakterini ochib berishga, tarixiy davrni yorqinlashtirishga xizmat qilgan. Misralar badiiyatini yanada oshirgan.

Asar mazmunida Piri Zindoniyning asl nomi quyidagicha keltiriladi:

Menmi? Hasan degan bitta chilangar.  
Men chilangar, otam, bobom, bari ohangar.

Bu zindonga tushganimga necha yil bo‘ldi.

Voh-voh, ellik yildir men bunda bandi...

Ammo ko‘rib turibsizki, o‘lgan emasman. [4:130]

Har bir laqablar ma‘lum bir sabablarga ko‘ra paydo bo‘ladi, ular o‘z tarixi va biografiyasiga ega. Piri Zindony nomi tarixda ham ma‘lum. Uning ota-bobolari, shuningdek o‘zi ham “Sarbadorlar harakati”ga boshchilik qiladi. Sarbadorlar XIV asrlarda mo‘g‘ullar va boylar zulmiga qarshi Eron va Movarounnaharda xalq qo‘zg‘olonlariga boshchilik qilishadi. Amir Temur bu kabi xalq qo‘zg‘olonlariga qarshi chiqib, ularni birdamlikka chorlaydi. Sarbadorlar hukmronligi 50 yil davom etadi va Amir Temur tomonidan bo‘ysundiriladi. Bu tarixiy voqe Maqsud Shayxzoda tomonidan asar matnida Piri Zindony laqab nomi vositasida mahorat bilan ochib berilgan. Muallif tarixdagi Sarbadorlarni jonlantirish uchun bu laqabni asar sujetiga olib kiradi.

Piri Zindony nomi orqali Shayxzoda ikki tarixiy davrni bir tragediyada jamlaydi. Asar yaratilishidan avval muallif 50-yillarning boshida “aksilsho‘roviv” ijodkor sifatida nohaq 25 yil ozodlikdan mahrum qilinadi. Ozod bo‘lgach 1967-yil “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini keng ommaga tuhfa etadi. Tarixiy asardagi Piri Zindony aynan muallifning o‘zidek. Piri Zindony nutqida ifodalagan har bir til birliklarida muallif ruhiyati, hayotiga taalluqli tarixiy haqiqatlar ayondek. Jumladan, Piri Zindoniyning podshoh Ulug‘bek bilan bo‘lgan dialogiga e’tibor beraylik:

Nega darkor? Sarguzashtlar, sarguzashtlarmish!

Men ularni aytgan bilan yoriydimi kun?

Yo la’natni zindon qulab kelarmi erklik?

Yo qaytadan men yosharib, jo‘ralar bilan –

Juma’likda yallaxonlik qilamanmi-a?

Podshohga insonlarni o‘ldirmoq oson!

Ammo, qani, ular kimni tiriltgan? Hayhot! [4:160]

Shayxzoda laqab mazmunini timsolning har bir nutqida ochib beradi. Piri zindoniyning zindonning

piri ekanligi uning so‘zlaridan, sahnaga xos viqoridan, o‘tmishidan namoyon. Shayxzodaning laqab yaratish mahorati qahramonning har bir nutqi asosidagi til birliklarida obraz portretini yorqin ranglarda usta musavvirdek mohirlik bilan chizib bergan. Shuningdek, muallif kontekst semasiga tadrij san’ati va sarkazm vositasida badiiy bo‘yoq bergan. Zindondagi qorong‘u tunlari qaytadan yorug‘ kunga aylanmasligi, zindon har zamonada manguligi, yigitlik davri takrorlanmasligi, shoh bor maskanda o‘lim borligi abadiy ekanligini kinoyaviy sarkazm vositasida ochiq ifodalangan. So‘z ustasi zindon – erklik, o‘ldirmoq – tiriltgan leksemalari orqali tazod san’atini ham uyg‘unlashтирган. Bu badiiy san’atlar vositasida Piri Zindoniying nutqi tag ma’nosida tarixiy davrga, Temuriylar davriga bo‘lgan salbiy subyektiv munosabati namoyon.

#### XULOSA

Turkiy tillarda ot yasovchi affikslarning eng salmog‘dori -iy so‘z yasovchi affiksi hisoblanadi va bir necha turdag'i nomlarni hosil qiladi. Navoiy, Lutfiy, Niyoziy, Qodiriy kabi nomlarda taxallus, nisbat nomlari yasaydi. Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy nomlarida Shayxzoda laqab nomlarini ifodalangan va dramatik asarga aynan tarixiy haqiqatni baiylashtirish uchun bu nomlarni asar sujetiga olib kirgan.

Tahlillar shuni dalillaydiki, Shayxzoda olib kirgan har bir nomda timsolning portreti namoyon. Qahramon nutqidagi har bir til birliklari, o‘zgalar nutqida ifodalangan badiiy til vositalari ham aynan shu nom uchun muallif tomonidan kashf etilgan.

Dramatik matnda onomastik nomlar, xususan, laqablar tarixiy davrga badiiy bo‘yoqdorlikni shakllantirish, muallif tafakkuridagi falsafiy haqiqatni asar sujetiga olib kirish va asar dinamikasining uzviyligi, ekspressivligini ta’minalash uchun muallif tomonidan mahorat bilan ifodalanganadi. Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy kabi to‘qima laqablar ijodkor tomonidan tragediya kulminatsiyasida ham puxta ishlangan va har bir sahna pardalarini to‘ldiruvchi zanjirdir. Go‘yo bu qahramonlar nutqining bir qismi drama matnidan tushirilsa asar sujetiga zarar yetadigandek, tarixiy haqiqat ochilmagandek.

Maqsud Shayxzodaning nom yaratishdagi musavvirona uslubi shundaki, har bir nomda qahramonning portretini o‘ziga xos yaratadi, nutqida – so‘zida uning shakl-u shamoyili, nom mohiyati namoyon. Shayxzoda dramalaridan ma'lumki, tarixiy dramada har bir nom tarixiy koloritni ifodalovchi, badiiy ekpressivlikni ta’minlovchi lingvopoetik vositadir. Zero, har qanday matnda muallif badiiy maqsadini ifodalovchi onomopoetik birliklar tahlili lingvopoetikaning amaliy asosini tashkil etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоетикаси: Филол. фанлари фалсафа доктори диссертация. –Тошкент, 2017.
- 2.Иўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Тошкент: Фан, 2007.
- 3.Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006.
- 4.Шайхзода М. Мирзо Улуғбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
- 5.Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 3-ж. – Б. 261.